



Oqila BAYJANOVA

Dotsent, PhD, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: oqilabayjanova89@gmail.com, ORCID ID: 0009-0000-4031-8388

Alfraganus Universiteti professori v.b., f.f.d A.Xolboyeva taqrizi asosida

DIPLOMATIK DISKURSDA BAHO MUNOSABATI VA EMOTIVLIKNING IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada diplomatik diskursda baho munosabati va emotivlikning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Diplomatiik mulqotda baholovchi birliklar va emotsional-ekspressiv vositalarning kommunikativ-pragmatik vazifalari, ularning nutqning ta'sirchanligi hamda diplomatik munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ijobiy va salbiy bahoning bevosita hamda bilvosita ifodalanish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: diplomatik diskurs, baho munosabati, emotivlik, baholash, emotsional-ekspressiv vositalar, pragmatika, kommunikativ strategiya, diplomatik mulqot.

ВЫРАЖЕНИЕ ОЦЕНОЧНОГО ОТНОШЕНИЯ И ЭМОТИВНОСТИ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В статье анализируются особенности выражения оценочного отношения и эмотивности в дипломатическом дискурсе. Раскрываются коммуникативно-прагматические функции оценочных единиц и эмоционально-экспрессивных средств в дипломатическом общении, а также их роль в повышении выразительности речи и формировании дипломатических отношений. Кроме того, рассматриваются способы прямого и косвенного выражения положительной и отрицательной оценки.

Ключевые слова: дипломатический дискурс, оценочное отношение, эмотивность, оценка, эмоционально-экспрессивные средства, прагматика, коммуникативная стратегия, дипломатическое общение.

THE EXPRESSION OF EVALUATIVE ATTITUDE AND EMOTIVITY IN DIPLOMATIC DISCOURSE

Annotation

This article analyzes the specific features of expressing evaluative attitude and emotivity in diplomatic discourse. It examines the communicative and pragmatic functions of evaluative units and emotional-expressive means in diplomatic communication, as well as their role in enhancing the effectiveness of speech and shaping diplomatic relations. The article also considers the ways in which positive and negative evaluation are expressed both directly and indirectly.

Key words: Diplomatic discourse, evaluative attitude, emotivity, evaluation, emotional-expressive means, pragmatics, communicative strategy, diplomatic communication.

Kirish. Diplomatiik diskursda baho munosabati deganda nutq muallifining voqea, shaxs, davlat, tashkilot, siyosiy jarayon yoki xalqaro muammoga nisbatan ijobiy, salbiy yoki neytral-rasmiy munosabatini til vositalari orqali ifodalashi tushuniladi. Baholash oddiy "yaxshi-yomon" munosabat emas; u diplomatik nutqda siyosiy pozitsiyani yumshoq, odobli va institutsional shaklda yetkazish vositasidir.

Mavzuni yoritishda eng qulay nazariy model - J.R. Martin va P.R.R. White tomonidan ishlab chiqilgan Appraisal Theory hisoblanadi [Martin J., 2005; 278]. Ushbu yondashuvga ko'ra baholash uch asosiy tizim orqali yuzaga chiqadi: Attitude - munosabat/hissiy baho, Engagement - muallif pozitsiyasi va boshqa ovozlari bilan munosabat, Graduation - bahoning kuchaytirilishi yoki yumshatilishi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Martin va White modeli baholovchi til birliklarini

aniqlashda asosiy metodologik mezon sifatida qo'llanadi. Ushbu uchlik diplomatik diskursda baholovchi ma'noning yuzaga chiqishini bir tomonlama emas, balki kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Chunki diplomatik nutqda muallif faqat voqea yoki hodisaga baho bermaydi, balki o'z pozitsiyasini boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy kuchlar va jahon hamjamiyati fikri bilan muvofiqlashtiradi hamda bahoning darajasini ehtiyotkorlik bilan kuchaytiradi. Shu bois Attitude, Engagement va Graduation kategoriyalari diplomatik diskursda baholash va emotivlikning semantik-pragmatik mexanizmlarini ochib berishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. 1. Attitude kategoriyasi baholovchi munosabatning mazmuniy yadrosini tashkil qiladi. Bu kategoriya orqali so'zlovchi yoki yozuvchi shaxs, hodisa,

siyosiy jarayon, xalqaro muammo yoki tashabbusga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildiradi. Martin va White Attitude tizimini uch ichki turga ajratadi: Affect, Judgement va Appreciation [Martin J., 2005; 42-91]. Affect hissiy holatni, ya'ni xavotir, mamnunlik, minnatdorlik, umid, afsus, ishonch kabi ichki kechinmalarni bildiradi. Ingliz diplomatik diskursida bu tur ko'pincha deeply concerned, sincerely grateful, pleased, hopeful kabi birliklar orqali namoyon bo'ladi. O'zbek tilida esa bu ma'nolar "chuqur tashvishdamiz", "samimiy minnatdorchilik bildiramiz", "mamnunmiz", "umid qilamiz" kabi rasmiy-emotiv shakllar bilan ifodalanadi.

Judgement esa inson, davlat, tashkilot yoki siyosiy subyekt faoliyatiga berilgan axloqiy-ijtimoiy bahoni anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi responsible approach, constructive dialogue, reliable partner, we highly commend kabi birliklar subyektning harakati yoki siyosiy pozitsiyasini ijobiy baholaydi. O'zbek diplomatik nutqida bunga "mas'uliyatli yondashuv", "konstruktiv muloqot", "ishonchli hamkor", "sa'y-harakatlarini yuksak baholaymiz" kabi birliklar mos keladi. Bu holatda baho bevosita hodisaga emas, balki ma'lum bir siyosiy subyektning xatti-harakati, tashabbusi yoki xalqaro maydondagi roliga qaratiladi.

Appreciation esa hodisa, jarayon, vaziyat yoki obyektning umumiy qiymatini baholaydi. Diplomatik diskursda bu tur ayniqsa xalqaro xavfsizlik, ekologik muammolar, tinchlik, barqaror taraqqiyot va global hamkorlik kabi mavzularda faol qo'llanadi. Masalan, ingliz tilidagi serious threat, global challenge, environmental tragedy, noble purpose, sustainable development kabi birliklar hodisa yoki jarayonning ijobiy yoki salbiy qiymatini bildiradi. O'zbek tilida esa ular "jiddiy tahdid", "global muammo", "ekologik fojia", "ezgu maqsad", "barqaror taraqqiyot" kabi shakllar orqali ifodalanadi. Demak, Attitude diplomatik diskursda baholashning asosiy semantik maydonini shakllantiradi: u hissiy munosabatni, siyosiy subyekt faoliyatiga bahoni va xalqaro hodisalarning qiymatini belgilaydi.

2. Engagement kategoriyasi esa muallif pozitsiyasining boshqa ovozlari, qarashlar va ehtimoliy muqobil fikrlar bilan munosabatini ko'rsatadi. Diplomatik nutqda muallif o'z fikrini mutlaq yakka pozitsiya sifatida emas, balki xalqaro hamjamiyat, BMT, hamkor davlatlar, ekspertlar yoki umumiy qadriyatlar bilan bog'liq holda bayon qiladi. Shu sababli Engagement diplomatik diskursda pozitsiyani asoslash, yumshatish, kengaytirish yoki mustahkamlash vazifasini bajaradi [Martin J., 2005; 92-160]. Engagement ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi: monoglossic va heteroglossic pozitsiya.

Monoglossic holatda fikr qat'iy, muqobil qarashlarga ochiq joy qoldirmagan tarzda beriladi. Masalan, Peace is the only way forward - "Tinchlik yagona to'g'ri yo'ldir" kabi gaplarda muallif pozitsiyasi qat'iy va muqobilsiz ko'rinadi. Yanada to'liqroq izohlaydigan bo'lsak: Muallif fikrni qat'iy hukm sifatida beradi, ya'ni "bizningcha", "ehtimol", "mumkin", "xalqaro ekspertlarga ko'ra" kabi boshqa ovoz yoki ehtiyotkorlik signallari ishlatilmaydi. Monoglossia "bare assertions", ya'ni qat'iy tasdiq gaplar sifatida izohlanadi.

...Our message to counterparts in the region and beyond has been simple. A widening of the conflict is in nobody's interest – least of all civilians on all sides. Britain is committed to getting behind a diplomatic solution so that together, we can ease the current tensions.... [David L., 2024; 5]. Ushbu misolda may, might, we believe kabi yumshatish yo'q. Fikr umumiy haqiqat sifatida berilgan, biroq muallif mojaroning kengayishini mutlaq salbiy holat sifatida baholaydi. "is in nobody's interest" birikmasi diplomatik, lekin qat'iy hukmni ifodalaydi. Huddi shu mazmunni ifodalofchi diplomatik matnlar o'zbek tilida ham mavjud. Masalan:

... Bugungi kunda Markaziy Osiyo – bu barqaror o'sish va farovonlik uchun oldimizda yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makonidir.... [Mirziyoyev Sh., 2025; 86]. Ushbu jumlada Markaziy Osiyo mintaqasi ijobiy baholovchi birliklar orqali tasvirlangan. Bu yerda "barqaror o'sish", "farovonlik", "yangi imkoniyatlar", "jadal taraqqiyot" va "samarali hamkorlik" kabi ifodalar mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va diplomatik jihatdan ijobiy o'zgarishlar maydoniga aylanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, "makonidir" kesimi fikrni qat'iy hukm shaklida beradi. Shu sababli ushbu jumla monoglossic baholashga misol bo'la oladi, chunki unda muallif pozitsiyasi hech qanday ehtimol, taxmin yoki "bizningcha" kabi yumshatuvchi vositalarsiz bayon qilingan. Gapda Markaziy Osiyo muammoli hudud sifatida emas, balki taraqqiyot, hamkorlik va farovonlik imkoniyatlarini yaratadigan ijobiy diplomatik makon sifatida talqin etilgan.

Heteroglossic holatda esa muallif boshqa fikrlar mavjudligini hisobga oladi, o'z pozitsiyasini ehtiyotkorlik bilan bildiradi yoki uni xalqaro hamjamiyat fikri bilan bog'laydi. Masalan, We believe that dialogue remains essential - "Bizningcha, muloqot muhim ahamiyat kasb etadi" shaklida muallif o'z pozitsiyasini bildiradi, lekin uni mutlaq hukm sifatida emas, diplomatik mulohaza sifatida taqdim etadi. Diplomatik diskursda Engagement ko'pincha we believe, we consider, according to, it is widely recognized that, the international community acknowledges, we support the view that kabi birliklar orqali yuzaga chiqadi. O'zbek tilida bular "biz hisoblaymiz", "bizningcha", "ma'lumki", "xalqaro hamjamiyat e'tirof etadiki", "biz ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlaymiz" kabi shakllarda ifodalanadi. Bunday birliklar muallif pozitsiyasini boshqa ovozlari bilan bog'laydi va diplomatik nutqning dialogik xarakterini kuchaytiradi. Ya'ni diplomatik matnda baho faqat "mening fikrim" sifatida emas, balki "umumiy manfaat", "xalqaro me'yori", "hamkorlik ruhi" yoki "jahon hamjamiyati pozitsiyasi" sifatida taqdim etiladi.

Shuningdek, o'zbek tilidagi misollarda bu birlik qanday ifodalanishini ham misollar yordamida ko'rib chiqamiz. Masalan: ... Ta'lim sohasida o'zaro bilim va tajriba almashish uchun xalqaro muloqot formatini yaratish maqsadida Jahon professional ta'lim sammitini o'tkazish bo'yicha rejamizni qo'llab-quvvatlaysiz, deb ishonamiz.... Ushbu misolda muallif o'z tashabbusini bevosita buyruq yoki talab shaklida emas, balki diplomatik ishonch tarzida ifodalaydi. Bu yerda "deb ishonamiz" birligi heteroglossic xususiyatni ko'rsatadi, chunki fikr boshqa tomonlarning munosabati va qo'llab-quvvatlashiga ochiq holda berilgan. "O'zaro bilim va tajriba almashish",

“xalqaro muloqot formati” kabi birliklar esa ta’lim sohasidagi hamkorlikni ijobiy baholaydi. Umuman, bu gapda muallif tashabbusni xalqaro hamkorlikka xizmat qiladigan foydali loyiha sifatida taqdim etaganini ko’rishimiz mumkin.

3. Graduation kategoriyasi baholashning darajasini, ya’ni uning kuchli yoki kuchsiz, aniq yoki nisbiy ifodalanishini belgilaydi. Bu kategoriya diplomatik diskursda ayniqsa muhimdir, chunki diplomatik nutq doimo muvozanatni talab qiladi: bir tomondan, muammo yetarlicha jiddiy ko’rsatilishi kerak; ikkinchi tomondan, haddan tashqari keskinlik xalqaro munosabatlarga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun Graduation baholovchi ma’noni pragmatik jihatdan boshqaruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi [Martin J., 2005; 278].

Graduation ikki asosiy yo’nalishda ishlaydi: Force va Focus. Force bahoning kuchaytirilishi yoki pasaytirilishini bildiradi. Masalan, ingliz tilidagi very important, highly significant, deeply concerned, serious threat, major challenge, fully support kabi birliklarda baho kuchaytirilgan. O’zbek tilida esa “juda muhim”, “nihoyatda ahamiyatli”, “chuqur tashvishdamiz”, “jiddiy tahdid”, “katta muammo”, “to’liq qo’llab-quvvatlaymiz” kabi birliklar Force vositasida baholashni kuchaytiradi. Bunday birliklar diplomatik nutqda muammoning dolzarbligini, tashabbusning ahamiyatini yoki siyosiy pozitsiyaning qat’iyligini ko’rsatadi. Masalan: ...The United Kingdom strongly condemns Russia’s latest mass strikes against Ukrainian cities, including the large-scale attack of 14-15 June, which killed at least 11 civilians... [Kariuki J., 2026; 5]. Ushbu jumlada Buyuk Britaniya Rossiyaning Ukraina shaharlariga qilgan so’nggi ommaviy hujumlarini keskin qoralamoqda. Bu yerda “strongly condemns” birligi Force vositasi hisoblanadi, chunki “strongly” so’zi oddiy qoralashni kuchaytirib, qat’iy salbiy bahoni ifodalaydi. “Latest mass strikes” va “large-scale attack” birliklari ham vaziyatning jiddiyligini ko’rsatadi. Jumlada 11 nafar tinch aholining halok bo’lgani aytilishi esa salbiy-emotiv ta’sirni yanada kuchaytiradi. Demak, bu misolda diplomatik nutq orqali Rossiya harakatlariga nisbatan kuchli siyosiy norozilik va salbiy baho bildirilgan.

O’zbek diplomatik diskursidagi misollarni ham tahlilga tortamiz masalan: “...Shu bois bugungi uchrashuvimiz juda muhim. Ushbu halokat oqibatlarini yengib o’tish va Orolbo’yida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mamlakatlarimiz manfaatlarini hisobga olgan holda suv va ekologiya bilan bog’liq muammolarni hal etish uchun sa’y-harakatlarimizni birlashtirishimiz zarur...” [Mirziyoyev Sh., 2018; 8]. Jumlada uchrashuvning ahamiyati kuchaytirib berilgan. Bu yerda “juda muhim” birligi Force vositasi hisoblanadi, chunki “juda” so’zi bahoni kuchaytiradi. “Shu bois” ifodasi esa bu fikr oldingi sabab yoki vaziyat bilan bog’liq ekanini ko’rsatadi. Demak, ushbu uchrashuvni oddiy

1- jadval

Baholovchi birliklarning ijobiy, salbiy va nisbiy-ehtiyotkor xususiyatlari bo’yicha statistik ko’rsatkichi

Baholash yo’nalishi	Ingliz tili	Foiz	O’zbek tili	Foiz
Ijobiy baho	13	52%	18	72%
Salbiy baho	11	44%	7	28%

diplomatik tadbir emas, balki muhim masalalarni hal qilishga xizmat qiladigan zarur muloqot maydoni sifatida baholangani ko’rishimiz mumkin.

Focus esa bahoning aniqlik yoki noaniqlik darajasini belgilaydi. Masalan, a true partnership, a genuine dialogue, a kind of challenge, almost impossible, relatively stable kabi birliklarda obyekt yoki hodisaning kategoriyaga qanchalik mosligi ko’rsatiladi. O’zbek tilida bunga “haqiqiy hamkorlik”, “chinakam muloqot”, “muayyan darajadagi muammo”, “deyarli imkonsiz”, “nisbatan barqaror” kabi birliklar mos keladi. Focus orqali diplomatik nutqda hodisa ba’zan aniq va qat’iy baholanadi, ba’zan esa ehtiyotkorlik bilan nisbiylashtiriladi. Masalan: ... And my message is that we will work with others, in good faith, to build genuine partnership, underpinned by our respect for other governments, organisations, communities, and individuals.... [Chapman J., 2024; 19]. Misolda boshqa davlatlar, tashkilotlar, jamoalar va shaxslar bilan hurmat asosida hamkorlik qilishga tayyorligini bildiradi. “In good faith” birligi hamkorlikning samimiy va halol niyat bilan olib borilishini ko’rsatadi. “Genuine partnership” esa Focus vositasi hisoblanib, “genuine” so’zi sheriklikning oddiy rasmiy aloqa emas, balki haqiqiy va ishonchli hamkorlik ekanini aniqlashtiradi. Demak, bu gapda diplomatik munosabatlar hurmat, ishonch va chinakam sheriklik asosida ijobiy baholangan desak mubolag’a bo’lmaydi.

O’zbek tilidagi misollarga yuzlanamiz. Masalan: ... Ko’p asrlik do’stlik, yaxshi qo’shnihilik va o’zaro ko’mak tamoyillariga amal qilgan holda, O’zbekiston bilan Qozog’iston o’rtasidagi munosabatlarni haqiqiy strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhida yanada kengaytirishga intilishim qat’iy ekanini tasdiqlayman.... Ushbu jumlada ikki tomonlama munosabatlar juda ijobiy baholangan. “haqiqiy strategik sheriklik” birligi Focus vositasi hisoblanadi, chunki “haqiqiy” so’zi sheriklikning rasmiy yoki yuzaki emas, balki amaliy va ishonchli ekanini aniqlashtiradi. “Ittifoqchilik ruhida” ifodasi esa munosabatlarning yaqin va mustahkam xarakterini ko’rsatadi. “Qat’iy ekanini tasdiqlayman” jumlasini muallif pozitsiyasining aniq va kuchli ekanini bildiradi.

Natija va munozara. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar va amaliy misollar diplomatik diskursda baholash va emotivlik bir necha lisoniy-pragmatik vositalar orqali yuzaga chiqishini ko’rsatadi. Xususan, Attitude muallifning hissiy va baholovchi munosabatini, Engagement uning boshqa ovozlari va xalqaro pozitsiyalar bilan munosabatini, Graduation esa bahoning kuchaytirilishi yoki yumshatilishini ifodalaydi. Ingliz va o’zbek diplomatik nutqlarida bu birliklar shaklan farqlansada, ularning asosiy vazifasi o’xshash: siyosiy pozitsiyani aniq, ehtiyotkor va ta’sirchan tarzda yetkazish. Shu bois quyidagi jadvalda ingliz va o’zbek diplomatik nutqlarida baholash yo’nalishining statistik taqsimoti ko’rsatildi.

Nisbiy/ehiyotkor baho	1	4%	0	0%
Jami	25	100%	25	100%

Umuman olganda, Attitude, Engagement va Graduation kategoriyalari diplomatik diskursdagi baholash va emotivlikni bir butun tizim sifatida tahlil qilishga yordam beradi. Attitude nima baholanayotganini va unga qanday munosabat bildirilayotganini ko'rsatsa, Engagement ushbu bahoning kimning pozitsiyasi sifatida va qanday dialogik muhitda berilayotganini aniqlaydi. Graduation esa bahoning qanchalik kuchli yoki yumshoq ifodalanganini belgilaydi. Shu sababli diplomatik diskursda baholashni faqat ijobiy yoki salbiy munosabat sifatida emas, balki hissiy, dialogik va darajaviy

xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab pragmatik hodisa sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, diplomatik diskursda baholash va emotivlikni ajratish nutqning pragmatik maqsadini to'g'ri aniqlashga yordam beradi. Baholash orqali muallif voqea yoki harakatga munosabat bildirsa, emotivlik orqali ushbu munosabatga hissiy ohang beradi. Demak, diplomatik nutqda baholash mazmuniy pozitsiyani, emotivlik esa uning hissiy-pragmatik ta'sirini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Martin J.R., White P.R.R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. - London: Palgrave Macmillan, 2005. - 278 p.
2. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1475158524000961>
3. David Lammy, UK Foreign Secretary, 2024. <https://www.gov.uk/government/speeches/only-with-diplomacy-can-we-deliver-long-term-peace-article-by-david-lammy>
4. Mirziyoyev Sh. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvi, 2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8674>
5. <https://www.gov.uk/government/speeches/progress-and-ways-to-improve-security-council-working-methods>
6. Chapman J. Minister for Development speech at Chatham House. – GOV.UK, 17.10.2024.
7. O'zbekiston Prezidenti nomiga qutlovlar kelmoqda. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 11.07.2023.